



YURAK, SENSAN
MENING SOZIM

**USMON
NOSIR**


YANGI ASR AVLODI
TOSHKENT
2017

UO'K: 821.512.133-32

KBK: 84(5O')6

N – 80

Nosir, Usmon

Yurak, sensan mening sozim: she'rlar va dostonlar. Usmon Nosir/
So'zboshi muallifi Erkin Vohidov. – Toshkent: Yangi asr avlodi,
2017. – 128 b.

ISBN 978-9943-27-992-6

O'zbek adabiyotining otashin shoiri Usmon Nosir chaqmoqdek
qisqa yashadi, ammo uning she'rlari abadiy xalq mulkiga aylanib
qoldi.

Mazkur to'plamga atoqli shoirning eng sara asarlari jamlandi.

Shoir she'rlarining barchasi ona yurtga cheksiz sadoqat va
ulkan muhabbat bilan bitilgan.

UO'K: 821.512.133-32

KBK: 84(5O')6

So'zboshi muallifi

Erkin Vohidov

ISBN 978-9943-27-992-6

© Usmon Nosir, «Yurak, sensan mening sozim». «Yangi asr avlodi»,
2017-yil.

So'zboshi o'rnida

CHAQMOQ UMRI

Dunyoda oz umr ko'rganlarni eslaganda, odatda u ti-rik bo'lganda falon yoshga kirgan bo'lardi, oqsoqol bo'lib, qariyalar qatorida munkillab yurgan bo'lardi, degan kabi gaplar aytiladi.

Men negadir Lermontov va Yeseninni, Hamza va Usmon Nosirni munkillab yurgan chol sifatida ko'z oldimga keltirolmayman. Ular chaqmoq bo'lib dunyoga kelganlar-u chaqmoqday olovli iz qoldirib dunyodan o'tganlar. Iste'dod shunday bir gavharki, u dengiz tubida, sadaf ichida ham gavhar; iste'dod shunday bir zilol irmoqki, uning har qatrasida daryolarning qudrati, ummonlarning teranligi bor; iste'dod shunday bir gulki, uning har bir ochilmagan g'un-chasida chamanlarning bo'yi, tarovati bor.

Usmon Nosir iste'dodi ana shunday gavhar, ana shunday irmoq, ana shundan g'uncha edi.

Usmon Nosir qisqa hayotida besh she'riy kitob, bir doston, bir she'riy drama yozib qoldirdi. Pushkinning «Bog'chasaroy fontani», Lermontovning «Demon» asarlarini o'zbek tiliga yuksak mahorat bilan tarjima qildi.

Bu kitoblar ichida ayniqsa «Yurak», «Mehrims» deb atalgan ikki to'plam Usmon Nosir ijodining qo'sh cho'qqisi hisoblanadi.

*Yurak, sensan mening sozim,
Tilimni nayga jo'r etding...*

Usmon Nosirning birtalay she'rlari, «Naxshon» dostoni o'zbek she'riyati xazinasidan joy olgan. Shoir qilgan tarjimalar bu mushkul san'atning yorqin namunalari sifatida ko'p avlod tarjimonlari uchun mahorat maktabi bo'lib xizmat qiladi.

Usmon Nosirning zamondoshi, qahramon adib, chex xalqi farzandi, o'zbek xalqining do'sti Yulius Fuchik: «Odamlar, hushyor bo'ling, men sizni sevardim!» degan so'zlarni aytgan.

Usmon Nosir o'z ijodi bilan, o'z qismati bilan har nafas bizga: «Odamlar, hushyor bo'ling, men sizni sevardim!» deb turadi.

Davr xalqqa uning iftixori bo'lgan, uning yuragi bo'lgan farzandlarini qaytarib berdi. Bugun Usmon Nosir nomli ko'chada istiqomat qiluvchilarning baxtli bolalari Usmon Nosir nomli maktabda o'qiydilar.

Shoir umri uning she'rlarida davom etadi.

Erkin VOHIDOV,
1988-yil

SHE'RLAR



YURAK

Yurak, sensan mening sozim,
Tilimni nayga jo'r etding.
Ko'zimga oyni berkitding,
Yurak, sensan ishqibozim.

Senga tor keldi bu ko'krak,
Sevinching toshdi qirg'oqdan,
Tilim charchar, ajab, gohi
Seni tarjima qilmoqdan.

Sen, ey sen – o'ynoqi dilbar,
Zafardan izla yoringni.
To'lib qayna, toshib o'yna,
Tirikman, kuyla boringni!

Itoat et!
Agar sendan
Vatan rozi emas bo'lsa,
Yoril, chaqmoqqa aylan sen,
Yoril! Mayli, tamom o'lsam!

1933

OQ YUVIB, OQ TARAB

Onajonim sog' bo'lsang
Sevinchim mening.
O'zim har joyda, dilimda –
Mehrimg o'ti sening
Hol so'rabsan shu xatingda,
Onam, ikki ko'zim:
«O'g'lim o'qishlaring qalay,
Sihatmisan, qo'zim?»
Kunlar havas uyg'otganlar,
Tilak yo'lga kirgan.
O'g'ling usta bo'lib endi
To'p-to'g'ri so'zlardan –
Baytlar to'qiyturgan bo'lgan.
Onajonim, sog' bo'lsang
Sevinchim mening.
O'zim har joyda, dilimda –
Mehrimg o'ti sening.
Esingdami, g'arib ona
U qishlarning zahri?
Yuzni momataloq qilgan
U yillarning qahri?
Mehribonim, yodga tushdi,
Bir kuni kuz nahori,
Sarg'ayib yerga tushgani
Bir ko'm-ko'k yaproqning.
Qon, yoshlar-la to'lganda,
U ko'zlaring seni,
Tuproqqa yuz tutganda
Umring bahori.
Qora kunlarning azobini kechalari sanab,
Kechalari sanab,
Oyoq yalang, bosh yalang'och

Qolgan kunlar qani?
Onajonim, o'tdi yillar,
O'chdi yillar oti...
Esga solma, mehribonim –
Ko'rishga olmay diydor,
Ajrashib ketganmiz...
Men ko'chalarda xor...
Esga solma mushtushzo'r –
U xo'jalarni:
Meni ko'p qiynadi,
Jodi olib qo'llarimni –
Qonlarimni ketkizdi,
Urilib yuzlarimga u yana,
Holimni bitkizdi...
Onajonim, o'tdi yillar
O'chdi yillarning oti.
Yuzlarimga qara, qani?
Yillarning zahri qani?
.....
Yodga tushib quvontirar
Shirin gullarning
Salom-la quchoq ochgan
Internatim mening...
Qo'ltig'imdan tutgan Mo'ydin,
Javlon, Abdullolar,
Ko'chalardan topib meni
Yuvgan boshqalar
Ko'zlarimning qorasidan
Suratlar solganlar.
Dillarimning sahifasida
O'chmas yozilganlar...
Yaxshi, ona,
O'qish yaxshi,
Sihatligimdir yaxshi.

Borajakman, o'tkazay-chi,
Bu o'qish yilini...
Oq yuvolmay, oq tarolmay
O'tgan bo'lsang, ona,
Oq yuvib, oq tarab
Katta qildi zamona.
Onajonim, sog' bo'lsang bas,
Sevinchim uchun mening,
O'zim har joyda,
Dilimda –
Mehring o'ti sening.

1931

Hayot hali mening oldimda,
Aqlim o'sar fikrim yuksalar.
Ammo, ko'rganlarim yodimda,
Hammasi ham butunlay qolar.

O'sha paytda qaysisi kulgi,
Qaysi biri berar hayajon.
Bu fikrimning boisi shulki:
Fikr – bola, bola – o'suvchan!

1935

DENGIZ OYNA KABI

Dengiz oyna kabi yaltirar,
To'liqlarga suqim oqadi.
Oqqush mungli-mungli oh urar,
Hazin kuyi dilga yoqadi.

O'tiraman – ko'nglim osuda,
Boshim uzra barglar shitraydi.
Soyalari limmo-lim suvda
Tanga-tanga bo'lib titraydi.

Qanday yaxshi, kechqurun yolg'iz
Yursang, ko'ngil asti to'y masa,
Oy go'yoki parishonxol qiz,
Sochlarini yozib o'ynasa...



DENGIZGA

Oq dengiz, yaxshi qol! Yaxshi qol, Shimol!
Ko'nglimda ishqingni olib qaytaman.
Sochimni o'ynaydi muzdek sho'x shamol,
Men unga dardimni qanday aytaman?

Kechqurun qirg'oqda aylanib tanho
Sevdim, sevib qoldim to'lqinlaringni.
Oyni cho'miltirgan tinch tunlaringni
Tushimda ko'rganda ne qilarman, o'?

O'ynagil so'ng marta, chayqal, erkalan!
Armonim qolmasin ketar oldimda.
Bag'ringda baliqday yuzgan oq yelkan
Bir umr sayr etgay mening yodimda...

Yaxshi qol, erkin suv! Yaxshi qol, dengiz!
To'lqinlar, qo'ynimga qizday kirdingiz...

1935, Oq dengiz





Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi
<https://kitobxon.com/oz/asar/2708> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси
<https://kitobxon.com/uz/asar/2708> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию
можно найти на сайте
<https://kitobxon.com/ru/asar/2708>